



“OYDINDA YURGAN ODAMLAR” QISSASIDA METAFORALARNING QO‘LLANILISHI

Yoqubjonova Mexrinov Yaxyojon qizi

Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti

III-bosqich 303-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6596194>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma’qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 30- may 2022

KALIT SO‘ZLAR

ma’no ko’chish usullari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, nomsiz narsaga nom berish, ikkilamchi nomlash.

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada yozuvchi Tog’ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasida qo‘llanilgan metaforalar lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilingan. Ma’no ko’chish usullaridan biri bo’lgan metaforalar haqida nazariy ma’lumotlar berilgan va misollar keltirilgan.

Ma’lumki, so’zlar asl ma’nosidan tashqari ko’chma ma’noni ham anglatadi. So’zlar ko’chma ma’noda qo’llanganda predmet-hodisalarni atabgina qolmay, o’sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Ko’chma ma’no tildagi so’zlarning to’g’ri ma’nosi negizida vujudga keladi. Ko’chma ma’noli so’zlar ilmiy va rasmiy uslubdan tashqari barcha uslublarda qo’llaniladi. So’zlarning ko’chma ma’nosi faqat kontekstda reallashadi.

O’zbek tilida metafora leksik ma’no taraqqiyot yo’llaridan biri sifatida qaraladi va ko’chimning o’xshashlikka asoslangan turi sifatida baholanadi. Shavkat Rahmatullayev metafora ko’chimining boshqa turlari bilan sinkretik ishlatilish imkoniyatiga e’tibor qaratadi: metaforik-funksionallik; metaforik-

metonimiya, metaforik-sinekdoxa va hokazo. Samolyotning qanoti metaforik birikmasida qush qanotiga nafaqat vazifa, balki shaklan ham o’xshaydi. Shuning uchun bu kabi holatlarni funksional-metaforik ko’chirish desa bo’ladi.

“Metafora yunoncha metaphora so’zidan olingan bo’lib, ko’chirish, ko’chirma, istiora degan ma’nolarni anglatadi. Metafora so’zni ko’chma ma’noda qo’llashning bir turidir. Metaforada ma’lum predmet yoki voqea-hodisaning biron tomoni yoki ayrim belgisi bilan boshqa predmet yoki voqea-hodisaning o’xshashligi aniqlanadi. Bunday holda predmetlarning rang, shakl, harakat-holat xarakteri, o’rin va paytga munosabati jihatdan o’xshashligiga asoslaniladi”. Metaforada so’z ma’nosi o’zgaradi, tushuncha yo tasavvur esa



tamoman o'zgaray, balki uning dastlabki ma'lum belgisi qolgan bo'ladi".

"Metafora asosida nom ko'chishi – narsa, belgi yoki harakatga xos atamaning (so'zning) o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa belgi, narsa, harakat haqidagi tushuncha uchun ham qo'llanishi, shu tushunchaning ham nomiga o'tishi (aylanishi)dir".

"Metafora asosida nom ko'chishi o'zaro o'xshashligi bo'lgan konkret narsalar doirasida bo'lganida, bu hodisa aniq sezilib turadi. Mavhum narsa-hodisalar doirasida bo'lganida esa uni sezish bir oz qiyinroq bo'ladi".

Biz ushbu maqolada taniqli yozuvchi Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida qo'llanilgan metaforalarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Adib qissalarida metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, ramz, kinoya va boshqa tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Yozuvchi asarlarida keng qo'llanilgan ko'chim turlaridan biri metaforadir. Badiiy tildagi obrazlilikni yuzaga chiqarishda, voqea-hodisalarning aniq, yorqin va ishonarli tasvirlanishida metaforaning o'rni beqiyosdir.

Metafora yo'li bilan ko'chirishning asosiy ko'rinishlari quyidagicha bo'ladi:

1. Bir narsaning nomi boshqa bir narsaga shakliy o'xshashlik asosida ko'chiriladi. Kelin akasi domla qoshiga cho'k tushdi. Ko'cha yoqalab oqmish suv-da oppoq. Suv jildirashi-da oppoq, choyshabdayin oppoq. Kuyov kaft ochdi. Havoda to'zg'imish tong sochlarini – tong yellarini siladi. Og'ayni-jamoa hovli yuziga chiqdi. Yoppasiga oq fotiha berdi. Yo'l yoqalarida adirlar bo'ldi. Adirlar ot tuyuq tovushlari aks-sadosini berdi.

Dalaga yo'l oldi. Otini ariq bo'yiga arqonladi.

Shunda Olloyor soy yoqalab bordi. Soy ostiga tushdi.

Adir biqinidagi bahaybat yong'oq barglari mungli shitirladi.

2. Bir narsaga xos belgining nomi boshqa bir narsadagi belgiga ko'chiriladi.

-Qani, ilohi omin, shu uyda katta-katta to'ylar bo'lsin, Olloh-akbar!

-Olti oy tashlab ketmaslik, achchiq shapaloq urmaslik, yalangoyoq qo'ymaslik, halol yurish-turish...Shu shartlarni qabul qildingizmi?

Qayerdan quyuq tutun chiqadi, o'sha yerda Qimmat momolar keldi.

Yaxshilarni sassiq-sassiq gaplar gaplar bilan chimchilab-chimchilab oladi. Yaxshilarni zahar-zahar gaplar bilan o'yib-o'yib oladi.

Donolar donosi borasida nordon gap tarqatadi.

Yo Muqaddas Buqa kumush tuyuqlari chaqir toshlarga tegib-tegib, o't chaqnayaptimikin?

Adir biqinidagi bahaybat yong'oq barglari mungli shitirladi.

3. Bir narsaga xos harakatning nomi boshqa bir narsa harakatiga ko'chiriladi.

Chin dildan gapirishadi, ochilib gurunglashadi.

Bizdan qo'lini yuvib, qo'ltiqqa uradi.

Yanga bo'lmish qoboq-tumshug'iga qarab kun ko'rdi.

Eng yomoni, ko'ngliga oldi.

-Bo'ldi-e, hech kim qiz uzatib boyigan emas.

Kuyov jo'ralar kelinnikiga yo'l oldi. O'zlariga ajratilmish uyga qo'ndi.

Tong tagi oqardi. Kuyov chimildiqni tark etdi. Qorong'u tushdi.



Tong yetildi. Yulduzlar so'ndi-so'ndi, Zuhro
yolg'iz qoldi.

Sardor qiz bolani bir mushtladi: -O'l-a,
yuragimni yording-ku!-dedi.

Kuyov-qayliq Xushvaqt yo'lida entika-
entika tongni oqladi.

-Aytadiganlar og'ziga qarab aytsin!-dedi
bir momo.

Kipriklarini pirlatdilar, yonoqlari,
lablarini uchirdilar.

Qish qaridi. Yerdan ko'klam hidi keldi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday
lingvistik hodisa kabi metafora ham

lisoniy asosga ega. Semamaga mohiyatan
mos bo'lgan semalarning turlicha
yaqinlashuvi sababli yangi-yangi ma'noga
egadek tuyuluvchi nutqiy so'z aslida
yagona lisoniy mohiyatlidir. Ana shu
mohiyatning yuzaga chiqish imkoniyatlari
o'xshashlik, aloqadorlik kabilar orqali
yangi ko'rinish kasb eta oladi. Metafora
ana shu imkoniyatlardan bittasi – obektiv
(subektiv) borliqdagi o'xshashlikning
lisoniy akti bo'lmish mutanosib semalar
asosida bir narsaning nomi ikkinchi bir
narsa nomi o'rnida qo'llanilishidir.

References:

1. O'zbek tili leksikologiyasi. O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. – Toshkent.: Fan. 1981.
2. Ya.Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent.: O'qituvchi. 1969.
3. U.Tursunov., A.Muxtorov., SH.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent.: O'zbekiston. 1992,
4. T.Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent.: Sano-standart. 2017.